

“MAFKURA” TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI

Raxmonova Kumush Alisher qizi,*Navoiy davlat universiteti**1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi “mafura” tushunchasi lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida til vositasida “mafura” tushunchasining ifodalanishiga alohida e‘tibor qaratilib, mazkur terminning izohli va maxsus lug‘atlarda berilgan izohlari qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, “mafura” umumiy ma‘noli atov birliklarga oid ayrim birliklarning lingvistik xususiyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: “mafura”, umumiy ma‘no, xususiy ma‘no, semantik-diskursiv xususiyat, pragmalolingvistika, sotsiololingvistika, kognitiv tilshunoslik, morfologik tahlil.

Abstract. This article analyzes the concept of “ideology” in the Uzbek language from a linguistic point of view. During the study, special attention is paid to the expression of the concept of “ideology” in the language, and the explanations of this term given in explanatory and special dictionaries are comparatively analyzed. Also, the linguistic features of some noun units with the general meaning “ideology” are studied.

Keywords: “ideology”, general meaning, specific meaning, semantic-discursive feature, pragmalinguistics, sociolinguistics, cognitive linguistics, morphological analysis.

Аннотация. В данной статье анализируется понятие “идеология” в узбекском языке с лингвистической точки зрения. В ходе исследования особое внимание уделяется выражению понятия “идеология” в языке, а также сравнительному анализу пояснений этого термина, данных в толковых и специальных словарях. Кроме того, изучаются лингвистические особенности некоторых именных единиц с общим значением “идеология”.

Ключевые слова: «идеология», общее значение, специфическое значение, семанто-дискурсивная особенность, прагмалингвистика, социолингвистика, когнитивная лингвистика, морфологический анализ.

Kirish. “Mafura” tushunchasi har bir jamiyat vakillarining qadriyatlarini, milliy manfaatlari, e‘tiqodi va g‘oyalarni o‘zida aks ettiruvchi murakkab tizimdir. “Mafura” atamasini ilk bor qo‘llagan Antuan Destyut de Trasi (Antoine Destutt de Tracy) Fransuz inqilobidan keyin ijod qilgan va g‘oyalarni o‘rganish uchun alohida fan sohasini yaratish maqsadida bo‘lgan”. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” va “Falsafa qomusiy lug‘ati” da ushbu atama bir-biriga bog‘liq holda talqin qilingan hamda atroflicha o‘rganilib, misollar yordamida izohlangan

Turli manbalarda ushbu atama mazmun jihatidan turlicha talqin qilinsa-da, ularning ifodalanishida ayrim farqlarni kuzatish mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “mafura” termini quyidagicha izohlanadi: “Mafura- (*arab. fikr yurgizish; tafakkur; e‘tiqod va maslaklar tizimi*) jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmui”. “Mafura” konsepti ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega birlik sanaladi. U insonning qarashlari va g‘oyalari asoslangan holda ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, milliy, siyosiy, iqtisodiy, diniy va shu kabi turlarga ajratiladi.

Adabiyotlar tahlili. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da “mafura” termini chuqurroq izohlanadi va u “...jamiyatda yangi paydo bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy kuchlarning talab-ehtiyojlarini, maqsadlarini ifoda etuvchi g‘oyaviy tizim...” sifatida baholanadi. Ensiklopedik manbalarda bu tushunchaning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlariga ko‘proq e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, ushbu terminning vazifalari atroflicha izohlanadi. “Mafura” quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ma‘lum bir g‘oyani insonlar ongiga singdirish,
2. Insonlarga ta‘sir etish,
3. Yosh avlodni mafkuraviy ruhda tarbiyalash,
4. Ko‘zlangan maqsad hamda vazifalarni bir tushuncha ostida birlashtirish.

“Mafura” o‘zining ta‘sir kuchi va mohiyatiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy maqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, u insonlarni birlashtirishi yoki aksincha ularni bir-biridan ajratishi; xalqlarni yuksaklikka ko‘tarishi yoki uning mavqeyini tushirishi mumkin.

“Falsafa qomusiy lug‘ati”da “mafura” umumiy semali atov birliklarning xususiyatlari va bajaradigan vazifalari, ularning jamiyat hayotidagi o‘rni tahlil qilingan. “Ozodlik, erkinlik mustaqillik, tinchlik, hamkorlik g‘oyalari asosida shakllangan, ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafura bunyodkorlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Vayronkor g‘oyalar asosida shakllangan mafuralar esa jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘ladi, millat va xalqlarni arosatga soladi”. Boshqalaridan farqli ravishda ushbu lug‘atda “mafura” konsepti falsafiy tushuncha nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi va uning jamiyat va millat hayotiga ko‘rsatadigan ta‘siri mafurani o‘rab turuvchi atov birliklar yordamida izohlab beriladi.

Muhokama va natija. “Mafura” termini tilshunoslik sohasi bilan ham bevosita bog‘liq, chunki har qanday g‘oya til orqali shakllanadi, yashaydi va tarqaladi. Til esa mafuraning asosiy quroli sanaladi. “Mafura” zamonaviy tilshunoslikning ayrim sohalarida o‘zini namoyon qiladi:

1.Sotsiologiya (til va jamiyatning o‘zaro aloqadorligini o‘rganuvchi soha) mafkuraviy birliklarning til orqali jamiyat orasida tarqalishini o‘rganadi. Masalan, “milliy mafura” birligi asosan siyosiy va rasmiy diskursda faol qo‘llanadi.

2.Pragmalingvistik (tilning yashirin ma‘nolarini va uning vaziyat bilan bog‘liqligini o‘rganadi) mafkuraviy niyatlarni ko‘rsatadi. Misol sifatida aytadigan bo‘lsak, “yot mafura” birikmasini eshitib insonda salbiy taassurot paydo bo‘ladi va u tinglovchini ogohlikka chorlaydi.

3.Kognitiv tilshunoslik (til va uning ong bilan munosabatini o‘rganadi) mafuraning inson ongida shakllanishini tahlil qiladi. “Mafura” inson ongida “g‘oya”, “e‘tiqod”, “maqsad”, “ta‘sir” singari freymlar asosida shakllanadigan murakkab butunlik sifatida baholanadi.

4. Diskurs tahlili matnshunoslik bilan bog‘liq soha bo‘lib, mafkuraviy birliklarning til orqali qurilishini o‘rganadi. “Mafura” o‘zini siyosiy, publitsistik, ta‘limiy matnlarda

turlicha namoyon qiladi. “Bunyodkor mafkura” va “vayronakor mafkura” oppozitsiyasi orqali qarama-qarshi g‘oyalar vujudga keladi. Masalan, siyosiy mafkura: “Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdagi mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin” Bunda “mafkura”ga jamiyatning yo‘lini belgilovchi va uni xavfsizlantiruvchi kuch sifatida qaralgan.

Publitsistik diskurs: “Milliy mafkura” millatning tub manfaatlarini nazariy asoslab berishiga va himoya qilishga da‘vat etilgandir, uning bosh vazifasi ham shudir”. Bunda “mafkura”ga insonlarning manfaatlarini ko‘rsatuvchi va ularni bir maqsad ostida birlashtirishga xizmat qiluvchi kuch sifatida qaralgan.

Ta’limiy diskurs: “Yoshlarda vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga muhabbat va hurmat ko‘rinishidagi mafkuralarni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni beqiyosdir”. Bunda “mafkura” insonlarni tarbiyaviy yo‘nalishga chorlaydi va yoshlarni mafkuraviy hushyorlikka da‘vat etadi.

Lingvistik nuqtayi nazardan “mafkura” juda katta semantik maydonni tashkil etuvchi umumlisoniy birlik hisoblanadi. Ushbu birlikning markazida “g‘oya”, “ta’sir”, “e’tiqod”, “qarash”, “maqsad” singari tushunchalar joylashgan. Ularning semasi “mafkura” ning nafaqat leksik xususiyatlarini, balki diskursiv qo‘llanilish yo‘nalishlarini ham belgilab beradi.

Semantik jihatdan “mafkura” terminini ayrim ijtimoiy-siyosiy va falsafiy birliklar bilan yondosh holda qo‘llash mumkin. “Milliy mafkura”, “Bunyodkor mafkura” ushbu konseptning ma’nosini toraytirib, uni ma’lum bir maqsadga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Morfologik jihatdan “mafkura” termini so‘z yasash imkoniyatining kengligi bilan ham ahamiyatlidir. “Mafkurachi”, “mafkuraviy”, “mafkuradosh” singari ichki manbalar asosida yasalgan ba’zi leksemalarning asosini aynan shu termin tashkil etadi. Ayniqsa, “viy” affiksi asosida yasalgan “mafkuraviy” sifati ijtimoiy-siyosiy va siyosiy diskursda faol qo‘llanadi. Uning ishtirokida hosil qilingan “mafkuraviy immunitet”, “mafkuraviy kurash”, “mafkuraviy tahdid” kabi birikmalar yashirin ravishda insonlarni ogohlikka chorlaydi.

Manba	Umumiy jihatlar	Farqli jihatlar
Izohli lug‘at	g‘oya va qarashlar tizimi	leksik ma’no markazida
Ensiklopedik lug‘at	g‘oyaviy tizim	ijtimoiy-siyosiy jihat kuchli
Falsafa lug‘ati	qadriyat va g‘oyalar tizimi	ijobiy yoki salbiy baho muhim

Tahlillar shuni ko‘rsatadi-ki, “mafkura” konsepti o‘zining yirik semantik maydoniga ega va u tilshunoslikning Pragmalingvistika, Sotsiolingvistika, Kognitiv tilshunoslik, Diskurs tahlil singari zamonaviy sohalar bilan bevosita aloqadordir.

Diskursiv jihatdan tahlil qilinganda uning ta’limiy, siyosiy, publitsistik matnlarda o‘zini turlicha namoyon etishi, morfologik jihatdan esa ushbu terminning yangi so‘z va birikmalar yasash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kuzatildi.

Demak, “mafura” tushunchasi o‘zbek tili tizimida yirik semantik maydon hosil qiluvchi, til, jamiyat va ong o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zida jamlovchi lingvokognitiv birliklardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida “mafura” konsepti ko‘p qirrali semantik va diskursiv xususiyat kasb etuvchi lingvistik birlik hisoblanadi. Ushbu terminning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, ”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” va “Falsafa qomusiy lug‘ati”dagi izohlari qiyosiy o‘rganilganda uning g‘oya, e‘tiqod, maqsad, ta’sir singari tushunchalar markazida turishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov M. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimining konseptual jihatlari: maqola.
2. Alimova N. “Ma’naviyatshunoslik” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Andijon: Andijon davlat universiteti, 2021.
3. Falsafa qomusiy lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2004-56b.
4. Ibragimova G. O‘zbek tili: darslik. – Buxoro: BuxDU, 2020.
5. Friden, M. Mafura: o‘ta qisqa tanishtiruv / tarj. S. Salim.84.b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. 1. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi, 2022. – B. 187.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat milliy nashriyoti-44b.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934